



**HOZIRGI KUNDA KADASTR SOHASIDA
QO`LANILAYOTGAN “UZKAD” TIZIMINI
QOLLASHDAGI YUTUQLAR**

Axmadov Azimjon

azimjonaxmadov1@gmail.com

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universtiteti talabasi

***Anotatsiya:** Hozirda davlat ob'ektlarining katta qismi “UZKAD” tizimiga o'tkazilmoqda. Masalan, 2021 yilning 25 iyuniga kelib, 45 ming 791 gektar yer maydoni tizimga kiritilgan. Keyinchalik, qishloq xo'jaligi yerlari, istiqbolli maktablar va boshqa davlat ob'ektlari ham tizimga qo'shiladi. Shu tariqa mamlakat bo'yicha barcha yer maydonlari va ko'chmas mulk hisobga olinadi. “UZKAD” tizimi orqali hujjat olish xizmatlari ham takomillashtiriladi. 2024-yildan iyul oyidan boshlab barcha hududlarda xususiy kadastr muhandislari “UZKAD” tizimi orqali faoliyat yuritadi.*

***Abstract:** Currently, most of the state facilities are being transferred to the "UZKAD" system. For example, by June 25, 2021, 45,791 hectares of land will be included in the system. Later, agricultural lands, promising schools and other public facilities will be added to the system. In this way, all land areas and real estate are taken into account. Services for obtaining documents through the "UZKAD" system will also be improved. From July 2024, private cadastral engineers will operate in all regions through the "UZKAD" system.*

***Kalit so'zlar:** “UZKAD”, kadastr, ko'chmas mulk, yer kadastr, geodeziya, topografiya, suniy intellekt,*

***Key words:** “UZKAD”, cadastre, real estate, land cadastre, geodesy, topography, topography, artificial intelligence.*

“UZKAD” tizimi nima?

“UZKAD” tizimi (O‘zbekiston Kadastr Axborot Tizimi) - bu davlat yer kadastr va yer resurslari elektron ma’lumotlar bazasini yuritish tizimi. “UZKAD” tizimiga yer maydonlari, binolar, boshqa ko'chmas mulklar va ularga oid huquqiy ma’lumotlar kiritiladi.

Mamlakatimizda yer va mulk munosabatlarini tartibga solishda zamonaviy mexanizmlarning yo‘lga qo‘yilishi mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2023 yil 1 yanvardan boshlab, kadastr va ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimi – “UZKAD” tizimiga o‘tkazildi, an’anaviy qog‘oz shaklidan yoki boshqa axborot tizimlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar har bir ko‘chmas mulk ob’ektini identifikatsiyalagan holda bosqichma-bosqich ushbu tizimiga to‘liq o‘tkazilmoqda.



“UZKAD” tizimining asosiy vazifalari

Tizimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat :

- Yer maydonlari va ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarni markazlashtirilgan ravishda yig'ish.

- Yer resurslarini hisobga olish va monitoring qilish.

- Yer solig'i va boshqa to'lovlarni hisoblash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish

- **Yer maydonlarini ro'yxatdan o'tkazish:** Tizim orqali barcha yer maydonlari hisobga olinadi va elektron xaritalar yaratiladi.

- **Ko'chmas mulklar hisobi:** Ko'chmas mulklarga oid ma'lumotlar, shu jumladan egalik huquqlari aks ettiriladi.

- **Ma'lumotlar integratsiyasi:** Tizim ko'chmas mulklarga oid turli manbalardagi ma'lumotlarni birlashtiradi va umumlashtiradi.

- **Ma'lumotlar xavfsizligi:** Ma'lumotlarning himoyalanganligi va ishonchliligi kafolatlanadi. Har bir tizimga faoliyat yurituvchi ijrochi o'zining shaxsiy electron kaliti bilan kiradi.

“UZKAD” tizimiga o'tish jarayoni

Hozirda davlat ob'ektlarini “UZKAD” tizimiga olib o'tish borasida keng ko'lamli ish olib borilmoqda . Masalan, Samarqand viloyati Paxtachi tumanida 137,5 ming gektar yer maydondan 27 ming gektari hisobga olingan va 110,5 ming gektari ro'yxatdan o'tkazilgan.

“UZKAD” tizimiga Garov reyestri, “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi, Ko'chmas mulk ob'ektlari manzillari yagona reyestri, Tadbirkorlik sub'ektlari yagona davlat reyestri, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestri, “Davlat mulki” axborot tizimi, Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning bo'linmalari reyestri, litsenziyalar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar reyestrlari va ko'chmas mulk ob'ektlariga oid ma'lumotlar yuritilayotgan boshqa barcha davlat axborot tizimlari integratsiya qilinadi hamda real vaqt rejimida onlayn ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

Xulosa: “UZKAD” tizimi yer resurslarini boshqarish, yer kadastri ma’lumotlarini markazlashtirishga xizmat qiladi . Shuningdek, aholi va tashkilotlarga yer maydonlari va mulklar haqida ishonchli ma’lumot olish imkonini beradi. “UZKAD” tizimi mamlakatimizning yer maydonlari va ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni markazlashtirilgan va yuqori darajada nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan axborot tizimini yaratdi. Tizim yer uchastkalari va ko‘chmas mulklarga oid operatsiyalarni avtomatlashtirish, soddalashtirish va shu orqali xo‘jalik yuritishni yanada qulaylashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulmurodov F. E. et al. O ‘ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA QAYTA TIKLASHDA 3D TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 500-506.
2. Haydarovich B. M. et al. Theoretical and Practical Issues of Water Cadastre Management. – 2023.
3. Nurali U., Lazizbek I., Azimjon A. PREVENTION OF ACCIDENTS USING CADASTRAL DATA IN UZBEKISTAN //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 123-128.
4. Ibragimov L., Azimjon A. GEOMATIKA FANINING TARIXI VA SOHADAGI O ‘ZGARISHLAR //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2024. – T. 3. – №. 25. – C. 37-40.
5. Shukhratovich A. A. CONSTRUCTION OF KOSHTEPA CANAL, FUTURE ECOLOGICAL CHANGES, GEODESY AND MAPS OF THE AREA //Scientific Impulse. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 1191-1193.

6. ESHMURODOVICH G. F. Problems of Systematic Mapping of Tourism in Uzbekistan //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – T. 7. – №. 05. – С. 146-149.

7.Umarov N. S. Land use and land cadaster in the community //НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ. – 2020. – С. 235-237.

8.Bobokalonov M. K. H., Khamdamova D. Using arcgis software to create a land reclamation map //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 385-388.

9. Raximov U. A., Tojidinova F. M., Po'latov S. S. ISSUES OF FORMATION OF STATE CADASTRE DATA OF HIGHWAYS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – С. 156-160.

FOYDALANILGAN INTERNET TARMOQLARI

8. <https://lex.uz/uz/>
9. <https://books.google.com/>
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
11. <https://kadastr.uz/uz>